

**MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA BADIY-ESTETIK
LAYOQATNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL, METOD,
VOSITALARI.**

Xolmatova Sarvinoz Raxmatilla qizi.

“University of business and sciensce”

Nodavlat oliy ta’lim muassasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni badiiy estetik layoqatni shakillantirishning mazmuni ,shakl metod ,vositalari ularni tashkil etish mazmuni haqida so’z boradi .Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik loyoqatni shakillantisrish uchun foydalaniladigon metodlarning mazmuni ,metodlardan foydalsnish shakli metodlar uchun foydalaniladigon vositalar haqida fikirlar keltirilgqan . Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilsdigon ta’limiy jarayonlarni samarali tashkil etish usullari yoritilgan .

Kalit so’zlar :Maktabgacha yosh ,layoqat .estetik tarbiya ,badiiy tarbiya ,metod vosita ,shakillantirish ,ta’limiy faoliyat , O’yin texnologiyasi ,Simmuliya trxnologiyasi .

Bolalarda go‘zallik haqidagi bilimlar atrof voqelikni uning butun xilma-xilligida, shuningdek go‘zallik eng ko‘p jamlangan holda aks etadigan san’atni estetik o‘zlashtirish jarayonida tarkib toptiriladi. Hayot xilma-xilligi san’at turlari va janrlarning xilma-xilligiga sabab bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda san’atning har xil turlari va janrlaridan (musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san’ati, adabiyot va h. k.) foydalaniladi. San’at yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiligining tunganmas manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtida u har bir kishining rivojlanishi, ma’naviy boyishi uchun ham vositadir. Badiiy asar kishining his-tuyg‘ulariga ta’sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikrlashni uyg‘otadi. Badiiy asardan hayajonlanish fikrlashni faollashtiradi. San’atning hamma turlari-adabiyot, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino bolalarga tushunarlidir. San’atdan bolalar bog‘chasini bezashda, ta’lim berishda, bolalarning mustaqil faoliyatlarida foydalaniladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ganch, chinni, yog‘och, loy, plastilindan xilma-xil buyumlar, o‘yinchoqlar yasash mumkin. Bolalar o‘yinchoqlarining yaxshi namunalaridan guruh xonasini bezatishda foydalansa bo‘ladi. Gilamchilik, to‘qimachilik, kulolchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, popopchilik, badiiy oyna, metall patnislari, to‘qilgan va tikib gul solingan buyumlar va boshqalar tasviriy san’atning manzarali shakliga kiradi. Bundan tashqari, bog‘chada har bir viloyat, o‘lka,

respublikaning milliy madaniyatidan foydalanish kerak. Ta’lim-tarbiya ishlarida o’zbek xalq amaliy san’ati namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. O’zbek naqshlari tushirilgan chiroqli guldor matolar qo‘g‘irchoqlar uchun ko‘ylak, oyna pardalari, dasturxon kabilar uchun ishlatilishi mumkin. Tasvirda badiiy, musiqa, teatrlashtirish kabi hamma faoliyatlarda qo‘yilgan vazifani bajarishda mustaqillik, ijodkorlikka intilish namoyon bo‘la boshlaydi. Bolalar o‘yinga tushganda, ashula aytganda, sahnalashtirish o‘yinlarida obrazlarning ifodali bo‘lishiga ongli ravishda intila boshlaydilar. Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san’at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahra-monlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san’at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo‘ladi. Bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyat rivojana boshlaydi, ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she’rlar to‘qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydilar. Endi ular o‘zlarining va o‘rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo‘lib qoladilar. Kuzatayotgan san’at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o‘qilayotgan she’rlarning eng nozik tomonlarini ko‘ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiiy asarlardagi ba’zi she’riy obrazlarni eslab qoladilar va o‘z nutqlarida ishlatadilar.

Tevalar-afrotdagi go‘zallikka, san’atga, badiiy va o‘yin faoliyatining har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi. Bolalar badiiy asar qahramonlari xatti-harakatiga juda katta his-hayajon bilan munosabat bildiradilar, ammo asardagi qahramonlar xulqidagi yashirin sabablarni «ular hali anglab yeta olmaydilar, Bolalarda badiiy ijodkorlikning rivojlanishi davom etadi, ammo ularning fikrlari hali aniq, barqaror emasligi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, maktabgacha tarbiya yoshi davri tarbiyaviy ta’sir orqali bolalarni estetik ruhda tarbiyalash maqsadlaridan va uning bola shaxsini shakllantirishda tutgan o‘rnidan kelib chiqib, estetik rivojlanishlarini takomillashtirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har biri o‘z janriga ega bo‘lgan grafika, rang-tasvir, haykaltaroshlik, manzarali amaliy san’at, adabiyot va musiqa bilan tanishadi. Bolalar shuningdek, bizni o‘rab turgan dunyoning eng muhim estetik tomonlari va xususiyatlarini ham egallaydilar. Maktabgacha yoshdagi davrida musiqa, vokal va cholq‘u, undagi mavzuni xilma-xilligi, ayrim asarlarning janri, tuzilishi, musiqali ifoda vositalari, musiqa asboblari haqida ham bilim beriladi. Bolalar xalq qo‘sishlari va raqslari, doira bo‘lib qo‘sish aytish, klassik va zamonaviy musiqa asarlari bilan tanishadilar. DMTTni o‘rab turgan go‘zailik muhiti bolalarning har badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rol o‘ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, balki shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

Kichkintoylar, ayniqsa 2-3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so‘zlardan ko‘ra rasmlarning ta’siri ayniqsa, katta bo‘ladi. Bola kitobdagagi rasmlarni qayta-qayta o‘z o‘rtoqlariga, kattalarga, qo‘g‘irchog‘iga «o‘qib» berish bilan uning mazmunini o‘z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagagi chiroyli, yopqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Kattalar mehnati, qahramonlik, shuningdek, ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, do‘slik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo‘lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir.

Bolalarning sevimli yozuvchilari Qudrat Hikmat, Mirmuxsin, Shukur Sa’dulla, Quddus Muhammadiyning bolalar uchun yozgan she’rlari ularda ijobjiy histuyg‘ularni tarbiyalaydi, ularni yashashga o‘rgatadi, dunyoqarashini shakllantiradi, ona tilining boyligini, so‘zlarning ta’sirchanligini his qilishga yordam beradi. Kichkintoylar hammadan ham ertaklarni sevadilar. Ertakning yaxshi tomoni shuki, unda uzoq fikr yuritilmaydi. Ertak qahramonlari bolaga yaqin va tanish. Ertak tili hayotiy hamda jonli bo‘ladi. Eng muhimi, tarbiyachining o‘zi badiiy adabiyotni sevishi va tushunishi, nasriy asar va she’rlarni ifodali o‘qiy bilishi kerak. DMTTda kattalar rahbarligida bolalar tomonidan konsertlar, bayramlar, kichkintoylarning tug‘ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg‘otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan qilib tashkil etilishi kerak.

Bolalar shuningdek, bizni o‘rab turgan dunyoning eng muhim estetik tomonlari va xususiyatlarini ham egallaydilar. Maktabgacha yoshdagagi davrida musiqa, vokal va cholg‘u, undagi mavzuni xilma-xilligi, ayrim asarlarning janri, tuzilishi, musiqali ifoda vositalari, musiqa asboblari haqida ham bilim beriladi. Bolalar xalq qo‘schiqlari va raqslari, doira bo‘lib qo‘schiq aytish, klassik va zamonaviy musiqa asarlari bilan tanishadilar. MTTni o‘rab turgan go‘zailik muhiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi. Pedagogika tizimiiga xos bo‘lgan estetika va etikaning birligini oilada DMTMlarda kichkintoylarni tarbiyalashda bemalol qo‘llash mumkin. Lekin haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo‘lishlari talab etiladi. Bolalarni o‘rab turadigan chiroyli narsalarning o‘zi bolaga hech narsa bermaydi, shuning uchun bolalarni ularni o‘rishga, qadrlashga, baholay bilishga o‘rgatish kerak. Tarbiachi bolalarning diqqatini polning tozaligiga, yaxshilab joyyiga qo‘yilgan mebelga, chiroyli idishlarga, gullarga qaratadi. Har bir yangi narsa, yangi bezak bolalar bilan birga ko‘rib chiqiladi. Eng muhimi, hamma narsalarni bolalarda estetik zavqni qo‘zg‘ata oladigan qilib ko‘rsatish kerak.

San‘at yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiligining tunganmas manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtida har bir kishining rivojlanishi, ma’naviy boyishi uchun ham vositadir. Badiiy asar kishining his-tuyg‘ulariga ta’sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikrlashni uyg‘otadi. Badiiy asardan hayajonlanish bolalarda

fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rasm bolada fikrlar o‘yinini uyg‘otadi. Bu to‘g‘rida S.Ya.Marshak shunday degan edi: «Qizil shapkacha» ertagini bolalar qatorasiga 20 marta eshitishga tayyorlar. Bunga sabab ertak o‘z tuzilishi bo‘yicha aniq, uning mantiqi va motivi izchil, har qanday bola o‘zini ertakdagi qahramon o‘rniga qo‘ya oladi va «Qizil shapkacha»ni o‘ynay oladi. San’atning hamma turlari - adabiyot, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino bolalarga tushunarlidir. Gilamchilik, to‘qimachilik, kulolchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, popopchilik, badiiy oyna, metall patnislari, to‘qilgan va tikib gul solingen buyumlar va boshqalar tasviriy san’atning manzarali shakliga kiradi.

Bundan tashqari, DMTTda har bir viloyat, o‘lka, respublikaning milliy madaniyatidan foydalanish kerak. Ta’lim-tarbiya ishlarida o‘zbek xalq amaliy san’ati namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. O‘zbek naqshlari tushirilgan chiroyli guldor matolar qo‘g‘irchoqlar uchun ko‘ylak, oyna pardalari, dasturxon kabilalar uchun ishlatilishi mumkin. Musiqa bolalarning kayfiyatini ko‘tarib ertalabki badan tarbiyada yangray boshlaydi. Yilning quruq va issiq vaqtlarida ekskursiya, sayr va o‘yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko‘taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg‘unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag‘ishlaydi. Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san’at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynayi jahonda san’at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida katta yordam beradi. Ashula aytib o‘yinga tushishda asosan xalq ijodi asarlaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun g‘oyat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylari va obrazlarini ijro etayotib, xalq tili va ko‘yining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi, musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqsga tushishga o‘rgatishda faqat to‘g‘ri aytish va to‘g‘ri harakat qilishni emas, balki ifodaii aytish va yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o‘rgatiladi. DMTTda o‘tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta’sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o‘ziga xosligi uning g‘oyaviy va estetik mazmuni san’atning turli ko‘rinishlari bilan bog‘liq bo‘lishidadir. Har qaysi bayram o‘z g‘oyasiga ega bo‘lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Estetik tarbiyaning vositalaridan biri qo‘g‘irchoq teatridir. Uning nihoyatda kuchli ta’sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo‘shqinligi va qo‘g‘irchoqligi (o‘yinchoqligij, shuningdek, badiiy so‘z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san’at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi kishi ko‘zi o‘ngida yaqqol namoyon bo‘lishidadir. Qo‘g‘irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qoimay, balki unda o‘zları ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatik qobiliyati, tashabbusi, nutqini o‘siradi, hayotiga quvonch bag‘ishlaydi. Videofilm ko‘rsatish bolalarning estetik didlarini o‘sirishda muhim vositalardan biridir.

Videofilmlar ko‘rsatishni adabiy matn o‘qib berish bilan qo‘shib olib borish bolaga filmning mazmunini yanada to‘g‘riroq va ta’sirchanroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, qo‘g‘irchoq teatri, soya teatri ko‘rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda alohida o‘rin egallaydi. Bu o‘yinchoq, qo‘g‘irchoqlar bolalarga tanish bo‘lsada, ularni tarbiyachi qo‘li yordamida harakatga keitirib, badiiy so‘zlar bilan qo‘shib olib borishi natijasida ular bolaning ko‘z o‘ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar. Badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rol o‘ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bulangina emas, balki shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

Mashg‘ulotlar uchun didaktik ta‘minot yaratish. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ta‘lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun, avvalo, multimedia to‘g‘risida asosiy tushunchalarni qarab chiqamiz. Multimedia atamasining lug‘aviy ma‘nosi [multum+medium] (yoki [ingl. multi+media]) kabi ikkita so‘z yig‘indisidan tashkil topgan bo‘lib, multi – ko‘p, media – muhit manosini anglatadi. Atama ilmiy va o‘quv adabiyotlarda ko‘p vositalilik, multimedia muhiti, ko‘p qatlamlı muhit, multimedia – bittadan ko‘p bo‘lgan mediadir, mahsulot tashuvchi vosita, ma‘lumot tashuvchi vosita kabi talqin qilinib kelinmoqda, xatto, ayrim adabiyotlarda hozirgacha multimedia atamasining aniq ta‘rifi mavjud emasligi ham e‘tirof etilgan. Hozirgi davrda multimedia atamasi ko‘p qirrali bulib, turli xil tushunchalarni ifodalashga tatbiq etilib kelinmoqda. Masalan, multimedia texnologiyasi; multimedia mahsuloti; multimedia didaktik vositasi va boshqalar shular jumlasidandir. Multimedia tushunchasining adabiyotlarda yoritilgan bir nechta ta‘rifini keltiramiz: Multimedia, deganda turli shakldagi ma‘lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Multimedia – bu maxsus texnologiya bo‘lib, dasturiy va texnik moddiy ta‘minot asosida kompyuterda bir vaqtning o‘zida tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda (hattoki videofilm holatida) ifodalash imkoniyatidir.

Maktabgacha yoshdagি bolalarga mo‘ljallangan multimediali texnologiyalar joriy an‘anaviy texnologiyalarga nisbatan quyidagilar bilan farqlanadi: - bolalarning psixologik jihatlari; - bolalarning yoshi (5-7 yosh); - kompyuterli mashg‘ulotning davomiyligi (15 daqiqa); - materialning bolalarga mosligi (multimedia shaklida); - materialning hajmi (30 daqiqaga mo‘ljallangan); - materialninig murakkablik darajasi (bolalar uchun sodda materiallar tanlanadi); - ularning faollik darajalari va hokazo. Maktabgacha yoshdagи bolalar uchun yaratilgan multimediali kompyuter texnologiyasi variantida texnologik yondashuv quyidagicha kechadi: birinchidan, maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchisining o‘rganiladigan materialni o‘zlashtirishini qulay qilish va osonlashtirish maqsadida material bir-biri bilan bog‘liq qismrlarga, bo‘laklarga ajratiladi; ikkinchidan, ta‘limdan mo‘ljallangan natija olish uchun amallar ketma-ket bajarilishi va loyihalashtirilgan ishlar oxiriga yetkazilishi ko‘zda tutiladi.

Eng muhim, ushbu texnologiyada o‘rganiladigan material multimedia asosida taqdim etiladi. Bola miyasiga bunday multimedaviy ta‘sir natijasida uning o‘zlashtirishi yaxshilanib, mashg‘ulot samaradorligi oshadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va har tomonlama rivojlantirishda multimedialardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar asosan tasviriy faoliyatga qiziqishadi va turli xil san‘at turlari orqali ijodiy g‘oyalarini shakllantiradilar, ijodiy jarayonda faollik ko‘rsatadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z tengdoshlari, kattalar bilan birgalikda ijodiy hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, ularning axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilish darjasni, foydalanish samaradorligi oshadi. Ota-onalarning muhim ehtiyojlari qondiriladi. Zamonaviy bolalar doimiy ravishda multimedia vositalari bilan yuzmay yuz muloqot qilganliklari uchun, kun davomida multfilmlar tomosha qilishadi, ularni yaratilish murakkabligini anglab yetishmasada, ularda alohida ishtiyoq bo‘lgani uchun o‘zlarida kuch, energiya topa oladilar, o‘zlarining ijodiy multfilmlarini yaratishga osonlik bilan kirishadilar. Ularning animatsiyadan foydalanishi vizual faoliyatga, AKT ga qiziqishni oshiradi, o‘zlarini ijodkor sifatida tasavvur etishadi.

O‘yin texnologiyasi. U ta’lim jarayonining ma'lum bir qismini qamrab oluvchi va umumiylar mazmun, syujet, xarakter bilan birlashtirilgan yaxlit ta’lim sifatida qurilgan. U ketma-ketlikni o‘z ichiga oladi:

- ob’ektlarning asosiy, xarakterli xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish, ularni taqqoslash, taqqoslash qobiliyatini shakllantiradigan o‘yinlar va mashqlar;
- ob’ektlarni ma'lum mezonlar bo‘yicha umumlashtirish uchun o‘yinlar guruhlari;
- o‘yinlar guruhlari, ular davomida maktabgacha yoshdagi bolalar haqiqiy va haqiqiy bo‘lmagan hodisalarini farqlash qobiliyatini rivojlantiradilar;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish, so‘zga tez munosabat, fonematik eshitish, zukkolik va boshqalarni rivojlantiruvchi o‘yinlar guruhlari.

Alohida o‘yinlar va elementlardan o‘yin texnologiyalarini kompilyatsiya qilish har bir pedagogning tashvishidir.

O‘yin shaklida o‘rganish qiziqarli, qiziqarli bo‘lishi mumkin va bo‘lishi kerak, lekin qiziqarli emas. Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish uchun ishlab chiqilgan ta’lim texnologiyalari o‘yin vazifalari va turli o‘yinlarning aniq belgilangan va bosqichma-bosqich tavsiflangan tizimini o‘z ichiga olishi kerak, shunda o‘qituvchi ushbu tizimdan foydalanib, natijada ishonch hosil qilishi mumkin. u kafolatlangan assimilyatsiya darajasini oladi u yoki bu mavzu mazmunidagi bola. Albatta, bolaning yutuqlarining bu darjasni diagnostika qilinishi kerak va tarbiyachi tomonidan qo‘llaniladigan texnologiya bu tashxisni tegishli materiallar bilan ta’minlashi kerak. O‘yin texnologiyalari yordamida faoliyatda bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanadi.

O‘yin texnologiyalari maktabgacha ta’lim tashkilotining tarbiya va ta’lim ishlarining barcha jihatlari va uning asosiy vazifalarini hal qilish bilan chambarchas bog‘liq. Ba’zi zamonaviy ta’lim dasturlari xalq o‘yinlaridan bolalarning xatti-harakatlarini pedagogik tuzatish vositasi sifatida foydalanishni taklif qiladi.

-Simulyatsiya texnologiyasi. Ushbu texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati ta’lim sohasidagi hayotiy, kasbiy qiyinchiliklarni modellashtirish va ularni hal qilish yo‘llarini izlashdir. Bolalar rejissyorlik o‘yinlarini tashkil etishning pedagogik texnologiyasi: O‘yin ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ko‘p funksiyali o‘yin materiali yaratiladi. Ertak syujetlaridan foydalanish tavsiya etiladi, o‘ynni tashkil qilish muddati 2-3 oy davom etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI .